

# O`RTA OSIYONI O`RGANISHDA TOPONIMLARDAN FOYDALANISH XUSUSIDA

**Usmanova R** – Qarshi davlat universiteti dotsenti

**Saydullayeva R** – Qarshi davlat universiteti talabasi. O`zbekiston.

**Annotatsiya:** Maqolada O`rta Osiyo o`lkasida joylashgan tog`larining geografik nomlarini kelib chiqish ma`nosi jihatidan o`rganiladi. Joy nomlarini shakllantiruvchi omillari va ularning tabiiy xususiyatlarini ma`lum tillarda talqini tavsifi berilgan. Shuningdek, geografik obyektlarni nomlarning kelib chiqishiga geografik joylashuvi, relyefini, landshaftlar xususiyatlariga ko`ra yuzaga kelishini tasvirlangan.

**Kalit so`zlar:** toponimika, balandlik, qoya, oronimiya, gidronimiiya, oykonimiya, Pomir, Tyanshan, Saur, Hisor, Olatog`.

## ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ТОПОНИМОВ В ИЗУЧЕНИИ СРЕДНЕЙ АЗИИ

**Усманова Р.** – доцент, Каршинский государственный университет

**Сайдуллаева Р.** – студентка Каршинского государственного университета.

Узбекистан.

**Аннотация:** В статье рассматриваются географические названия некоторых гор Средней Азии с точки зрения их происхождения. Описаны факторы, формирующие топонимы, и их интерпретация природных особенностей на определенных языках. Также описаны географические объекты по происхождению названий, географическому положению, рельефу и особенностям ландшафта.

**Ключевые слова:** топонимика, высота, скала, оронимия, гидронимия, ойконимия, Памир, Тянь-Шань, Саур, Гиссар, Алатау.

## ON THE USE OF TOPONYMS IN THE STUDY OF CENTRAL ASIA

**Usmanova R** – Associate Professor, Karshi State University

**Saydullayeva R** – Student, Karshi State University. Uzbekistan.

The article explores the geographical names of some mountains in the Central Asian region in terms of their meaning of origin. A description of the factors that shape place names and their interpretation of natural features in certain languages is given. The origin of the names of geographical objects is also described in terms of their geographical location, relief, and landscape features.

**Keywords:** toponymy, height, cliff, oronymy, hydronymy, oikonymy, Pamir, Tian Shan, Saur, Hissar, Alatau.

**Kirish.** Geografik obyektlar shu qadar ko`p va xilma-xilki, ularni ifoda etish uchun maxsus so`zlar, ya`ni nomlar bo`lishi kerak. Bu hudud yoki geografik

nom bo`lib, bu nomning ma`nosi qaysi xalq tilidan olingani qachondan boshlab paydo bo`lgani hamisha qiziqarli bo`lgan. Toponimika fani alohida ilm sifatida keyingi XX asrda shakllangan bo`lsa-da tilshunoslik, adabiyot, tarix va ayniqsa geografiya fanlarining rivojlanishi bilan nomlar paydo bo`lishi ma`nosi haqidagi masalalar geograflarning ishlarida e`tiborli ahamiyatga ega. Biz quyida O`rta Osiyo toponimlarining tabiiy jihatlari eng ko`p namoyon bo`ladigan oronimlar haqida to`xtalamiz. Ushbu maqolada manbalarga qo`shimcha ravishda O`zbekiston milliy ensiklopediyasi (2005) va internet saytlaridan foydalanilgan.

**Asosiy qism.** Qadimgi yunon tilida “joy nomi” mazmuniga ega bo`lgan “toponimika” - muayyan tildagi geografik nomlarni to`plash, ularning rivojlanish, o`zgarish tendensiyalarini, areallarini aniqlash, nomlarning muhim leksik-semantik xususiyatlarini yoritish, toponimik lug`atlar tuzish, joy nomlari transkripsiyasi kabi masalalarni ilmiy tadqiq etish bilan shug`ullanuvchi fan [3; 290 b.]. Ilm bilan shug`ullangan kishilarning ijodlarida bayon etiladigan voqeliklar aniq bir joy, hudud yoki suv akvatoriyasi bilan bog`liq bo`ladi. Geografik obyektlar shu qadar ko`p va xilma-xilki, ularni ifoda etish uchun maxsus so`zlar, ya'ni nomlar bo`lishi kerak. Bu hudud yoki geografik nom bo`lib, bu nomning ma`nosi qaysi xalq tilidan olingani qachondan boshlab paydo bo`lgani hamisha qiziqarli bo`lgan.

O`lkashunoslar O`rta Osiyo, O`zbekistonni yoki o`z o`lkasining tabiatini, arxeologiyasini, etnografiyasini, toponimikasini va insonlarning xo`jalik faoliyatini o`rganish vaqtida aniq voqelikni bilib olishigina emas, balki turmushda muhim bo`lgan bir qancha zarur malakalar ham hosil qiladilar [4; 135-140 b.].

Joy nomlari, ya`ni toponimiya bir nechta turga bo`linadi. U gidronimiya - suv havzalari nomlari, oykonimika - aholi yashash maskanlari va ularning qismlari nomlari, oronimiya - yer yuzasining relyef shakllari nomlari va boshqa turlarga bo`linadi [5;173 b.; 6;320 b.].

Nomlar aniq bir joy tabiatining muhim jihatlari o`ziga muhrlagan. Shuning uchun ko`pchilik nomlar joyning tabiiy sharoitini, geografik o`rnini, relyefi, iqlimi, landshaftining muayyan bir xususiyatini o`zida aks ettiradi. Shu jihatdan qaraganda

toponimning geografiya fanlari uchun ham ahamiyati yuqori ekanligini payqash mushkul emas.

O`rta Osiyo tabiiy geografik xaritasida keltirilgan boy va xilma-xil axborotlar orasida nomlar alohida o`rin tutadi. Nomlar joyning geografik o`rnini aniqlash uchun ham, geografik tushunchalarni ifoda etish uchun ham zarur. Shuning uchun ham toponimika ayniqsa, geografiya uchun katta ahamiyatga ega. Toponimika geografiyaning ajralmas bir qismi hisoblanadi [2;102-104 b.]. Bu fan har bir geograf, o`lkashunos va ziyolidan o`z o`lkasining tabiati, madaniyati, tarixi va urf-odatlarini, an`analarini har tomonlama chuqur o`rganishni talab qiladi.

Tog` nomlariga oronimiya deyilib, O`rta Osiyo tog` provinsiyasining ko`pchilik tog` nomlari tarkibida Oqtog` va Qoratog` O`rta Osiyo o`lkasi uchun ko`p tarqalgan nomlardandir. Oqtog` va Qoratog` bir biriga antonimik, qiyosiy juft bo`ladi. Oqtog` yirik, katta bo`ladi. Qoratog` past tog`lar, qorsiz tog`lar, daraxtsiz tog`lardir, ba`zan kun tushmas tog`, qorong`i tog` [7; 336 b.].

Kishilar nom qo`yish uchun boshqa joylardan qandaydir farq qilib turadigan tabiiy obyekt qidiradilar. Jumladan, tog`li hududda yashaydigan kishilar tosh so`zini ko`proq ishlatadilar. Ayritosh, Qoratosh, Oqtosh deganda ko`pincha qandaydir, ayrim tog`lar nazarda tutiladi. Masalan, Olatog` ikki qismdan iborat: ola+tog`. Tog` turkiy tillariga mansub, ola so`zi yuksak, balandlik ma`nosini yo`qotgach tog` qo`shilgan. Olatog` tog` + tog` demakdir [3; 290 b.].

O`rta Osiyo tog` provinsiyasida "Olatov" nomi ko`p uchraydi. Masalan, Issiqko`lning shimolida Kungay Olatov, janubida Terskay Olatov joylashgan. Kungay Olatov – quyoshga ro`para, kungay tog`lar, Terskay Olatovga esa oftob tushmaydi – shuning uchun Terskay deyilgan. Ammo boshqa Olatovlarni kartada farq qilish uchun soha olimlari tomonidan ularga turli so`zlar qo`shilgan: Talas Olatovi, Orqaili Olatovi, Jung`oriya Olatovi va boshqalar.

Mahalliy aholi O`rta Osiyoning eng baland Tyanshan tog`larini Tangritog` deb atagan. Tangri so`zi faqat «xudo» ma`nosidagina emas, balki osmon, muqaddas, ulug`, keng ma`nolarida ishlatilgan. Tangritog`ning hamisha ko`rinib turgan eng baland cho`qqisi Xontangri, ya`ni «Osmon tog`ining xoni» deb

ulugʻlangan. Xitoylar qadimiy Tangritogʻni oʻz tillariga tarjima qilib, Tyanshan (tyan –osmon, shan – togʻ) shaklini yaratganlar [7;8;9].

Pomir - X.Hasanovning yozishicha, Markaziy Osiyoda - mir suffiksli yana bir qancha nomalarni koʻrib (Kashmir, Aymir, Tirachmir), bir taxmin qildik: poy – shubhasiz, ”oyoq”, ”etak”, ”tayanib turadigan joy” maʼnosida, ammo mir qoʻshimchasi umuman yuksak togʻ, osmonfalak, oftob maʼnosida boʻlsa kerak. Qadimiy fors tilida mihr soʻzi «oftob» manosida boʻlsa kerak. “Mixr” yoki “Mitr” - qadimgi eroniylarning quyosh xudosi sifatida, Pay-mixr soʻzi “quyosh oyogʻi yoki quyosh xudosi” degan maʼnoni anglatishi ifodalanadi. Pomirni gohida «Dunyo tomi» deb ham izohlaydilar [7; 336 b.]. Pomir haqiqatdan ham qadimgi Eron xalqlari yashagan yerlarga nisbatan sharqdagi togʻli mamlakat, geografik jihatdan undan quyosh chiqadi, deb ifodalaydilar. Fors tilshunoslari Pomir soʻzi forschada Bamiar soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “yer tomi” degan maʼnoni bildirishini taxmin qilishgan.

Saur tizmasi togʻlari - turkiy tillar tarkibidagi soʻzlar bilan bogʻliq. Saur togʻlarini juda tik va qoyali relyefga ega boʻlgani tufayli mahalliy aholi tomonidan tik, qoyali yoki “tik qoya” deb nomlangan boʻlishi mumkin [7;8;9]. Ammo baʼzi manbalarda Saur togʻlari “qora” degan maʼno bilan izohlanadi, lekin asosiy eʼtibor togʻ relyefining balandligi va tik qoyali ekanligiga qaratilgandir.

Saur togʻlarining gʻarbida Zaysan va Olakoʻl koʻllarining orasida Torbogʻotoy togʻlari joylashgan. Togʻning nomi koʻpincha tepa, togʻ tepasi, balandlik yoki egilgan, bukilgan maʼnolarini beradi [7;8;9]. Qadimgi turkiy qabilalar manbalarida esa, hukmdor shaxslar nomlari bilan ham bogʻliq holda uchraydi. Moʻgʻul manbalarida esa baʼzan, sugʻurli togʻ- deb, bu yerda sugʻurlarning koʻpligiga ishora berilgan. Balki haqiqatdan ham qadimda sugʻurlar koʻp boʻlgan boʻlishi mumkin. Torbogʻotoy togʻlarida daryolar bilan parchalangan vodiylar, bukilgan relyef shakllarini koʻplab uchratish mumkin.

Tojikistondagi Xorugʻ shahri yaqinida joylashgan togʻ tizmasiga Shugʻnon nomi berilgan. Shugʻnon - atamasi eroniy tillar guruhiga mansub shugʻnon tilidan olingan boʻlib, toponimik maʼnoda “togʻ yonbagʻiri” yoki togʻli hudud bilan

bog'liq ma'nolarni anglatadi [7;8;9]. Shug'non — qadimiy madaniyat va o'ziga xos tilga ega bo'lgan hudud (asosan shug'nonlar yashaydi), bu hududning asosiy relyef shakli esa tog'lardir.

Tyanshan tog'larining sharqiy qismida, Xitoy hududida Iren-Xabarga tog' tizimi joylashgan. Iren-Xabarga yoki Eren Habirga tog'lari ma'nosi, turkiy va mo'g'ul tillarining ta'siri ostida shakllangan bo'lib, asosan, baland va muqaddas tog'lar majmuasini anglatadi [7;8;9]. Iren-Xabarga tog'lari nomi muqaddas tog' tizmasi, avliyolar qiri yoki uluq tog' devori kabi obrazli ma'nolarni ifodalaydi.

Hisor tizma tog'lari — Qashqadaryo, Surxondaryo va Hisor vodiylari orasida qo'rg'on singari yuksalib turganligidan shunday atalgan. "Hisor" sug'diylar tilida "qo'rg'on", "qasr" deganidir [2;102-104 b.;4; 135-140 b.].

Dehqonobod past tog'laridan shimoldagi g'arbiy tarmoqlarining biri Xontaxti toponimi ham joy geografik xususiyatlarini ifodalaydi [2;102-104 b.]. Xontaxti tog'i Yakkabog' tog'laridagi eng jozibador massivi hisoblanadi. Xontaxtining shimoli g'arbiy yonbag'irida surilma va karst jarayonlari birgalikda hosil qilgan supaga o'xshash relyef shakli borki, u hukmdorlar tomonidan ikki pog'onali taxtga bir oz o'xshaganligi uchun Xontaxti deyishadi. Xontaxtining shimoli g'arbiy yonbag'rida surilma va karst jarayonlari birgalikda hosil qilgan supaga o'xshash relyef shakli borki, u hukmdorlar tomonidan ikki pog'anali taxtga bir oz o'xshaganligi uchun Xontaxti deyishadi [1;204 b.; 4; 135-140 b.].

**Xulosa.** Geografiya ta'limini rivojlantirishda, uning istiqbolini yanada oshirishda, o'quvchilarning geografik ko'nikma, malaka va bilimlarini chuqurlashtirishda, geografiya darslarida o'lkashunoslik ma'lumotlaridan foydalanish alohida o'ringa ega. Toponimika geografiya fani uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, geografiya fanining ajralmas bir qismi hisoblanadi. Bu fan har bir geograf, o'lkashunos va ziyolidan o'z yashash makonining tabiati, madaniyati, tarixi va urf-odatlarini, an'analarini har tomonlama chuqur o'rganishni talab qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1.Калонов Б.Х, Маматов А. “Оммабоп география ” Тошкент Зарқалам 2006- йил 204 б.

2. Маматов А.Усманова Р. Микротопонимларни географик ғоялар тарихи билан боғлаб ўрганиш масалалари//“Қишлоқ тараккиёти ва фаровонлиги” конф. матер. Қарши “Насаф” 2009. 1-жилд. 102-104 б.
- 3.Нафасов Т.Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати, Т “Ўқитувчи” 1988 й. 290 б.
4. Усманова Р. Ўлкани ўрганишда топонимлардан фойдаланиш масалалари //Антропоген ландшафтшунослик .Илмий мақолалар тўплами. Ўзбекистон география жамияти.СамДУ. Самарканд-2014. 135-140 б.
- 5.Қораев С.Географик номлар маъноси Т “Ўқитувчи” 1978. 173 б.
6. Қораев С. Топономика. – Т., 2006. – 320 б.
7. Ҳасанов Ҳ.Ўрта Осиё жой номлари тарихидан Т. “Фан” 1965. 336 б.
8. <https://uz.wikipedia.org> ›
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>